

NOAN'ANAVIY TAKRORLASH USULI ORQALI XORIJIY TILDA SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH TEXNIKASI

Mustafoyeva Ruxshona Abdurasulovna

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti 2-kurs talabasi

Raqam: +998 99 416 69 22

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda til o'rganishga talab tobora kuchayib bormoqda, ayniqsa chet elda o'qish istagi bo'lgan yoshlar orasida bu borada ko'plab muammo va qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani sir emas. Albatta til o'rganish va uni kundalik muloqotda qo'llay olish ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi, ammo shuni ham unutmaslik kerakki, tanganing ham ikki tomoni bor. Xorijiy tilni bilish ulkan imkoniyatlar bergani singari, uni o'zlashtirish davomida ko'plab qiyinchiliklarga ham duch kelamiz albatta. Bulardan biri so'z yodlashdagi uchraydigan muammolar desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu maqola aynan chet tilidagi so'zlarni yangicha, noan'anaviy bo'lgan usullar orqali cheksiz xotirada saqlash haqidagi ma'lumotni qamrab olgan.

Kalit so'zlar: intervalgacha takrorlash, intervalli takrorlash, yangi so'z, xorijiy til, Leitner tizimi, mutlaq interval, quti usuli, flesh - karta.

Abstract: In the modern world there is a big rising desire to learn language, especially, among the youngsters who wants to study abroad are facing a lot of difficulties and problems regarding to this, is not a secret for us. Of course, learning foreign language and using it in a daily conversation opens the door of huge opportunities, but try to remember that, the coin has a two sides. As knowing the foreign language provides with great opportunities, while learning the language we might have some difficulties, of course. One of the problematic situations, is learning and memorizing a new word. This article, gives an information about the new and unconventional way of learning the new words in foreign languages by saving them in the infinite memory.

Key words: spaced repetition, new word, foreign language, Leitner system, absolute interval, box method, flash card.

Ahamiyat berganmizmi, yo'qmi, bir necha oylar yoki oldin maktabda yoki qo'shimcha darslarda uyga vazifa uchun berilgan yangi so'zlarni qariyb yarimini eslay ham olmaymiz hatto. To'g'risini aytganda, ushbu so'zlarni kundalik hayotda muntazam ravishda qo'llamasligimiz ham sabab bo'lishi mumkin ammo buning asosiy sababi, so'zlarni noto'g'ri takrorlash oqibatida yuzaga keladi. Faraz qilaylik, bir kunda 50 ta yangi so'z yodlash kerak, ammo biz buni faqatgina tezroq qilishimizni anglay olamiz xolos, keraklilarini nutqimizda qo'llab, kamdan-kam foydalaniladigan

so'zlarni shunchaki unutib yuboramiz. Ba'zi bir holatlarda bu so'zlarning hech birini qo'llay olamymiz ham. Buning asosiy sababi, ba'zi bir odamlarda xotira sustligi bo'lsa ba'zilar yodlanishi kerak bo'lgan so'zlarni to'laligicha tushunmasdan turib, yodda saqlashga urinishdir. Har kuni shu maromda so'z yodlash, o'sha tilni tezroq o'rganishni ta'minlaydi deb o'ylab qolamiz hatto. Negaki, sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingizni isbotlab beruvchi vositadir. Chet tilida yangi so'z yodlashning ko'plab usullari va turlari mavjud. Biroq, xorijiy tilni endigina o'rganishga kirishgan inson uchun, yetarlicha tajriba va ko'nikma kerak.

Zamonaviy ta'lim tizimida **noan'anaviy usullardan** foydalangan holda ta'lim berish va shunday usullardan foydalanib o'zlashtirish keng tarqalmoqda. Shu usullardan biri **intervalgacha yoki intervalli takrorlash** texnikasi bo'lib, bu atamaning, o'zbek tilida ayni muqobil tarjimai mavjud emas. Intervalgacha takrorlash, shuningdek intervalgacha ko'rib chiqish deb ham ataladi, ushbu texnika uzoq vaqt davom etadi ammo kerakli ma'lumotni asosiy xotirada cheksiz saqlashga yordam beradi. Bunda maksimal ma'lumotni saqlab qolish uchun oldin o'rganilgan material o'rtasidagi intervalni, ya'ni bo'sh vaqt oralig'ini oshirish uchun qo'llaniladigan usul. Bu usul bolalarni o'qitishda ham katta yoshli insonlar uchun ham birdek samarali va muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Ko'plab ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, u asosan samaralidir, chunki vati-vaqti bilan qabul qilingan ma'lumotni takrorlash o'rganilgan materialni muhimroq foizini eslab qolishga katta yordam ko'rsatadi. Bu borada ko'p yillar davomida turli xil tadqiqotlar ham o'tkazilgan. Takroriy tadqiqotlarning umumiy tanqidi ishtirok etgan ko'plab testlarni shunchaki qisqa muddatda ushlab turishini oddiygina o'lgaganligini aytdi. Karpicke va Bauernshmidt tomonidan olib borilgan tadqiqot takrorlashlarning har xil turlari orasidagi farqlarni aniqlash uchun ushbu tamoyildan foydalangan. Ikkisi bir hafta davomida ishtirokchilarni sinovdan o'tkazish orqali uzoq muddatli saqlashni o'rganishga e'tiborini qaratdi. Ishtirokchilarga bir xil intervaldagi yoki kengaytirilgan intervaldagi jadval taqdim etildi. To'qsonolti ishtirokchiga qaysi turdagi intervallar tayinlangan bo'lishidan qat'i nazar, ularning har biri repetitsiya intervallari oxirida uchta takroriy sinovdan o'tdi. Ushbu testlar yakunlangandan so'ng esa, ishtirokchilar oxirgi saqlash sinovini bajarish uchun bir haftadan so'ng qaytib kelishdi. Tadqiqotchilar, qanday takrorlash jadvalidan foydalanish muhim emas degan xulosaga kelishdi. Samarali va uzoq muddatli o'rganishga eng katta hissa qo'shuvchi omil bu takroriy testlar orasidagi masofa (Mutlaq interval) edi.

Intervalli takrorlash bu- o'rganuvchidan ma'lum bir ma'lumot eslab qolinishi so'raladigan usul hisoblanib, har safar berilgan ma'lumot takrorlanganda vaqt oralig'I ortib, kengayib boradi. Agar, ma'lumot o'rganuvchi tomonidan to'g'ri eslansa, vaqt oralig'I ikki barobarga oshadi, bu ma'lumotni kelajakda eslab qolish imkonini beradi. Bu texnika orqali inson, ma'lumotni uzoq muddatli xotirasiga joylashtirishga

qodir bo'ladi. Agarda, ma'lumot yodda turmasa yoki xatolik ro'y bersa, avvalgi bosqichga qaytadilar va texnikani davom etadilar. Ushbu o'qitish usuli samarali va foydali bo'lishi uchun, ilgari o'rganilgan lug'at, ibora va frazalarni ortib boradigan vaqt oralig'ida mashq qilinishi talab etiladi. Birinchi bosqichlarda avvaliga soatlar oralig'ida, so'ng kunlar va oylar mobaynida takrorlab turish lozim. Chunki bir mashg'ulot bilan boshqa bir mashg'ulot orasidagi bo'sh vaqt oralig'ida miyya ma'lumotni yaxshiroq qabul qilish xususiyatiga ega. Agar takrorlanayotgan material xotirada qolmayotgan bo'lsa uni eng boshdan boshlab bosqichma -bosqich o'rganish talab etiladi. Kengaytirilgan intervallar bilan intervalgacha takrorlash juda samarali hisoblanib, takrorlashning har bir oralig'ida ma'lumotni qabul qilish yanada qiyinroq bo'ladi, chunki o'rganish davrlari o'rtasida ma'lum bir muddat o'tib ketadi. Buning foydali imkoniyatlari, bu har bir nuqtada uzoq muddatli xotirada qabul qilingan va chuqur o'rganilgan ma'lumotni qayta ishlashning yanada tub darajasini yaratadi. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda intervalli takrorlash samaralidir, chunki tez-tez o'rganilgan ma'lumotlarni xotira kuchi yordamida eslab takrorlab turish xotiradagi mavjud bilimlarni saqlab qolishga yordam beradi. Bu usul noodatiy usullardan farqli hisoblanib, naftaq oddiy so'zlarni balki fakt va kontekstli ma'lumotlarni eslab qolishda faol ravishda ishlatilishi mumkin. Intervalli takrorlash asosan, "siqilishga" ya'ni te'z unutishga sabab bo'ladigan ma'lumotni qisqa vaqt ichida o'rganish o'rniga uni ma'lum bir intervallar oralig'ida ko'rib chiqish va uzoqroq muddatga yodda saqlashga qaratilgan. Misol uchun semestrning boshida darslikda biron bir ma'lumot yoki yangi so'z o'rgangan bo'lsangiz, siz ushbu ma'lumotni semester oxiriga qada kengaytirilgan vaqt oraliqlarida ko'rib chiqishingiz va yodda saqlashingiz mumkin bo'ladi. Lekin aynan darslik haftasining boshida o'rganilgan ma'lumot ushbu texnika bilan o'rganilmasa yakuniy nazorat imtihonlari oldidan bu ma'lumotlarni qayta tezlik bilan o'zlashtirishga harakat qilasiz ammo bu ma'lumotlar uzoq muddatli xotiradan joy olmasligi mumkin. Ushbu texnika asosan katta miqdordagi ma'lumotlarni, masalan til kurslari uchun lug'at yoki boshqa bir yodlash talab qilinadigan kurslar uchun, ayniqsa samaralidir. Shuning uchun u ikkinchi tilni o'rganish jarayonida so'z boyligini oshirish davomida yoki lug'at yodlayotganda yuzaga keladigan muammolar uchun juda qulay yechim hisoblanib, unga juda mos keladi. O'quv jarayonida talaba yoki o'quvchi o'zlashtirishni faol olib borishi uchun bir qator intervalgacha takrorlash dasturiy ta'minotlari ishlab chiqilgan. **Vaqtivaqti bilan takrorlash** bu dalillarga asoslangan o'rganish usuli bo'lib ko'proq kartalar yoki fleshkartalar yordamida bajariladi. Yangi kiritilgan yoki nisbatan murakkabroq bo'lgan fleshkartalar tez tez ko'rsatiladi va takrorlanadi, eski va unchalik qiyin bo'lmagan kartalar esa psixologik intervalli effektdan foydalanish uchun juda kam vaqt oralig'ida ko'rsatiladi. Intervalli takrorlashdan foydalanish usuli biron bir ma'lumot yoki so'zni o'rganish tezligini va uzoq muddatga eslab qolishni isbotlagan. Garchi bu prinsip ko'pgini kontekstlarda

foydali bo'lsada, intervalgacha takrorlash ko'pincha asosiy va katta hajmli ma'lumotlarni eslab qolish uchun qo'llaniladi. Ta'limning bu oralig'i xotirani ko'proq saqlashga imkon beradi: har safar yodlash mashqlari bajarilayotganda, ishlanayotgan ma'lumotlarning yangi sharhi o'tkaziladi. Hatto intensiv o'qitish odatiy amaliyotisiz ozroq darajada saqlanib qolishga intiladi keyinroq. Intervalli takrorlashda, intervalni amalga oshirishning ikki shakli mavjud. Birinchisi, mutlaq oraliqdir. Mutlaq intervallar o'rganish va sinov davridagi barcha sinovlarning o'lchovi hisoblanadi. Bunga misol qilib, o'rganuvchi jami o'ttizta sinov muddatidan o'tishi mumkin, ushbu sinovlar oralig'I kengaygan oraliq bo'lishi yoki o'zgarasdan bir xil bo'lishi ham mumkin. Ikkinchi shakl esa, nisbiy oraliq deb nomlangan. Nisbiy oraliq har bir bosqichlardagi sinovlar oralig'ini o'lchaydi. Bunga misol qilib, kengayuvchi intervallarni olish mumkin misol, interval yigirma bo'lsa ular kengayuvchi interval etib (1-5-12-17-20) bo'lsa, bir turdagi intervallarga (5-5-5-5) ga ega bolishadi. Bu takrorlash turning bir turi boshqasidan foydali yoki foydasiz ekanligini ko'rsatadi.

Intervalgacha takrorlash texnikasini asosan, Leitner tizimi orqali amalga oshirish osonroq va samaraliroq kechishi mumkin. Leitner tizimi 1970-yillarda nemis fan jurnalisti **Sebastyan Leitner** tomonidan taklif qilingan flash-kartalardan samarali foydalanishning keng tarqalgan usuli sanaladi. Bu intervalgacha takrorlash usulining oddiy amalga oshirilishi bo'lib, bunda kartalar ortib boruvchi vaqt oralig'ida ko'rib chiqiladi. Bu usulda Leitnerning o'quv qutisidagi kartalarni, har birini qanchalik yaxshi bilish tamoyiliga asoslanib, guruhlarga ajratiladi. Talaba kartada yozilgan materialni eslashga urinib ko'radi. Agar kartadagi yozilgan material muvoffaqiyatli eslansa, kartani keying guruhga yuborishadi. Agar ular muvoffaqiyatsiz bo'lsa, karta qayta ko'rib chiqish uchun birinchi guruhga qaytariladi. Har bir keying guruhda o'rganuvchi kartalarni qayta ko'rib chiqishi kerak bolgunga qadar ancha vaqt mavjud bo'ladi. Solernt man Lernen kitobida nashr etilgan Leitnerning original usulida (Qanday qilib o'rganishni amalga oshirish lozim), takrorlash jadvali o'quv qutisidagi bo'limlarning o'lchamiga qarab boshqariladi. Bular 1,2,5,8 va 14 sm edi. Bir bo'lim to'lgandan keyingina esa, o'quvchi undagi ba'zi bir kartalarni eslab qolganiga qarab, ularni oldingi yoke orqadagi guruhlarga qayta joylashi va ko'rib chiqishi mumkin. Kartochkalarda nafaqat to'liq ma'lumot yoki to'ldirilishi kerak bo'lgan ma'lumotni ham kiritish ahamiyatlidir. Agarda siz yangi so'zlarni yozilishini unutib qo'yayotgan bo'lsangiz o'sha so'zni ba'zi bir harflarni tushurib qoldirib o'rniga, to'ldirilishi kerak bo'lgan nuqtalar orqali bayon qilishingiz maqsadga muvofiqdir masalan, (ingliz tilidagi; Malnutrition- m.l.u.r.tion yoki Miscellaneous- mi.c.l.a.n.ous). Bu usul orqali bir necha bosqichlarda qayta ko'rib chiqish yordamida qoldirilgan harf o'rnini to'ldirish yanada osonroq bo'lib boradi. Ushbu usul "Quti usuli" deb ham yuritiladi va aytib o'tilganideg kartalardagi material to'g'ri eslansa keying qutiga yuborilada, agar noto'g'ri javob berilsa uni birinchi qutiga qayta tez-tez va agressiv ko'rib chiqish uchun

yuboriladi. Agarda isga so'zning grammatik jihatlari, qayerda qaysi so'z bilan ko'proq qo'llanilishi ahamiyatliroq bo'lsa unda siz kattaroq hajmdagi kartochkaga u haqida sizga kerakli va foydali bo'ladigan ma'lumotlarni yozib chiqasiz va har qaytarganda, ushbu ma'lumotlar sizga so'zni yanada aktivroq qo'llashingizga yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Agarda ma'lum bir so'zning talaffuzini esingizda saqlay olmayotgan bo'lsangiz unda siz kartaga o'sha so'zning transkripsiyasi yoki siz uchun qulay bo'lgan holatdagi yozilishini bayon etsangiz bo'ladi, shu maromda ushbu kartalarni ham bir nasha kengaytirilgan ko'rib chiqish davrlarida takrorlab yodingizda uzoq muddatga tutishingiz mumkin bo'ladi. Texnika samarali bo'lishi uchun muntazam va uzilishlarsiz bo'lgan vaqt oraliq'ida ko'rib chiqishingiz talab qilinadi. Ma'lumotni tezroq va qisqa vaqt uchun o'rganish emas balki, biroz davomiy muddatda muntazam xotiraga joylashtirishga ko'proq ahamiyat beriladi.

So'ngi o'n yilliklarda kompyuter sohasida erishilgan yutuqlar kompyuter yordamida o'qitish usullarining paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Ularning aksariyati intervalgacha ko'rib chiqish va takrorlash texnikasiga asoslangan holatda ishlaydi. Intervalgacha takrorlash texnikasni qo'llashda mobil telefon vositalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan (Lingocard) ilovasi intervalgacha takrorlash tizimi asosid ishlaydi va til o'rganuvchilariga yangi lug'atni eslab qolish va yodda saqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan texnika hisoblanadi. Ushbu ilova o'quvchilar yangi ma'lumotga ma'lum vaqt davomida qayta va qayta duch kelsalar uni yaxshiroq eslab qolishlariga sabab bo'luvchi tamoyilga asoslanadi. Intervalli takrorlash usulida o'rganish tizimi o'quvchilarga yangi lug'at so'zlarni yanada samaraliroq o'rganish imkoniyatini beradi, yangi lug'at taqdim etish va keyin har bir ko'rib chiqish jarayonida ko'rib chiqish vaqtini asta sekin oshirish orqali ishlaydi. Ushbu yondashuv ilovalarda o'quv jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarga yangi lug'atni samaraliroq yodlashda yordam berish uchun mo'ljallangan. Intervalli takrorlash tizimi tilni o'rganish va yangi lug'at yodlashning eng smarali usullaridan biri va ilovaning avtomatlashtirilgan va shaxsiylashtirilgan yondashuvi o'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini yaxshi tarzda optimallashtirishga yordam beradi. Ushbu ilova dunyoning barcha tillarida bepul mavjud bo'lib, siz uni sharoitingiz va vaqtingizga bemalol moslashtira olasiz. Bundan tashqari Anki va Memorang ilovalari ham mavjud bo'lib ular ham intervalli takrorlash tizimiga asoslangan holda ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://uz.warbletoncouncil.org/repeticion-espaciada-6010>

<https://www.novakidschool.com/blog/how-to-teach-your-child-english-modern-methods-and-techniques/>

https://en.m.wikipedia.org/wiki/Spaced_repetition

<https://e-student.org/spaced-repetition/>

<https://lingocard.com/blog/uz/intervalli-takroriy-o-quv-tizimi>